

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



Namangan to‘qimachilik sanoati
instituti rektori

Q.M. Xoliqov Q.M. Xoliqov
2024 yil “28” oy.

**CHARM BUYUMLARINI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARI VA
NAZORAT ASOSLARI FANINING
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60721200	Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (charm va mo‘yna texnologiyasi)

Namangan – 2024

Fan/ modul kodi CHBICHJNA2606		O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	Kreditlar 6
Fan /modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Charm buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari.	90	90	180
2	I.Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad-talabalarga charm buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlarining ketma-ketligi, charm buyumlari tayyorlashning asosiy jarayonlarini nazariy va amaliy asoslari, charm buyumlar korxonalarida ishlab chiqariladigan buyumlarining tasnifi, poyabzal ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bosqichlari, ishlov berish usullarini o'rgatadi. Fanning vazifasi – talabani poyabzal ustki va tag materiallarni bichish jarayonini rivojlantirish yo'llari, ustki detallarini tikma chok bilan biriktirish usullari, poyabzalga ishlov berish texnologik jarayoni sxemasini tuzish, turli usulda shakl berishda poyabzal yig'ish sxemasi to'g'risida tassavurga ega bo'lishi, poyabzal ustki va tag delallari uchun materiallarni bichishni, poyabzalni yig'ish jarayonini loyihalash asoslarini, yig'ish sxemasini tuzish asoslari va jarayonlar tartibini tuzish to'g'risidagi bilimlarini takomillashtirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (maruza mashg'ulotlari) II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Charm buyumlari ishlab chiqarish korxonalarda tashkiliy sxema va ish jarayoni.* Charm buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkiliy sxemasi. Poyabzal ishlab chiqarish texnologik jarayonlari. Ommaviy ishlab chiqarishda poyabzal ishlab chiqarish texnologiya asoslari. Charm buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlarining ketma-ketligi. Charm buyumlari tayyorlashning asosiy jarayonlarini nazariy va amaliy asoslari. 2-mavzu. Poyabzal ishlab chiqarishda umumiy texnologik jarayoni tartibini tuzish.** Charm buyumlari ishlab chiqarish jarayonlari va nazorat asoslari. Poyabzal ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bosqichlari, ishlov berish usullari,			

rivojlanish tendentsiyasi, istiqboli hamda charm buyumlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalar.

3-mavzu. Poyabzal ustki va tag delallari uchun materiallarni bichish.

Materiallarni poyabzal ustki detallariga bichish. Materiallarni bichish jarayonlarini takomillashtirish yo'llari. Ustki detallarga ishlov berish jarayonlarini loyihalash. Materiallarni har bir partiyasini standartlarga mosligi.

4-mavzu. Bichish va kesish bo'limi va ishlatilgan uskunarlar va mashinalar.*

Materialni ta'minlovchidan qabul qilib olish va sifatini tekshirish. Charmlarni maydonini o'lchash. Qirqishga topshiriq tuzish. Qirqish uchun charmlarni partiyalarini tanlash va qirqish. Bichish uskuna va jihozlari tasnifi.

5-mavzu. Poyabzal ustki detallari uchun sun'iy, sintetik va to'qima materiallarni bichish va bichilgan detallarga ishlov berish texnologik jarayonlarini loyihalash.

Ko'p qavatli to'qima mato va suniy terilar to'shamasini to'g'ri chiziqli olg'a surilish usuli. To'g'ri burchak va to'g'ri bo'lmagan burchaklar birgalikda qo'shib joylashtirish asosi. Bichishda hosil bo'ladigan chiqindilar.

6-mavzu. Poyabzal oraliq delallari uchun materiallarni bichish jarayonlarini tuzish. Detallarni vaqtincha biriktirish uchun yelimlash.**

Poyabzal oraliq materiallarini-bichish jarayonlari sxemalari. Bichish presslarining tuzilishi va ishlash printsiplari. Detallarni bichish jarayonlari ketma-ketligini tuzish asoslari va nazorati. Detallarni vaqtincha yelimlab biriktirish asoslari. Detallarni tikishga tayyorlash nazorati.

7-mavzu. Poyabzal ustki va taglik detallariga dastlabki ishlov berish.

Materiallarni poyabzal tag detallariga qirqish nazariyasi. Tag detallariga dastlabki ishlov berishni loyihalash asoslari. Qirqilgan detallarni sifatini tekshirish. Tag detallariga ishlov berish va sifatini tekshirish.

8-mavzu. Jarayonlar tartibini tuzish, ustki detallarini tikma chok bilan biriktirish usullari.**

Poyabzal ustki tanovarini yig'ish sxemasini tuzish. Texnologik jarayonni loyihalash asoslari. Ishlatiladigan chok turlari va sxemasi. Tanlangan chokni asoslash. Texnologik va instruksion kartasini tuzish. Chokni qadamini chokni mustaxkamligiga ta'siri.

9-mavzu. Poyabzal yig'ish jarayonini loyihalash uslubi, yig'ish sxemasini tuzish.**

Poyabzalni yig'ish texnologik jarayonlarini loyihalash uslubi. Yig'ish sxemasini qurish. Texnologik va instruksion kartasini tuzish. Texnologik jarayon tartibini nazorat qilish.

10-mavzu. Poyabzalga ishlov berish texnologik jarayonini sxemasini tuzish.

Mexanik ishlov berish va fizik-kimyoviy ishlov berish jarayonlari. Ishlov berish texnologik va instruksion kartasini tuzish va asoslash.

11-mavzu. Turli usulda shakl berishda poyabzal yig'ish sxemasi.

Tanovarni qolipda shakllash jarayonlari. Tanovarni shakllash usullari. Taglikni shakllangan tanovarga birlashtirish jarayonlari. Poyabzalni yig'ish usullari va farqi.

12-mavzu. Oyoq kiyimlarini yig'ish texnikasi. Yelimli yig'ish texnikasi.

Tikib-yelimlab yig'ish texnikasi. Tikma usulda yig'ish texnikasi.

Mashinada yuqori bosim bilan quyib yig'ish texnikasi. Vulkanizatsiyalash usulida yig'ish texnikasi. Mocasinni yig'ish texnikasi.*

Yig'ish sxemasini tuzish. Poyabzalni yelimli, tikib-yelimlab, bosim ostida quyib, vulkanizatsiyalab yig'ish texnikasini asoslash. Poyabzal turiga qarab yig'ish jarayonlarini asoslash va nazorat qilish.

13-mavzu. Namlik va issiqlik bilan ishlov berishda texnologik ko'rsatkichlar.

Namlash va quritish usullari. Konveksion va radiatsion quritish asoslari. Namlash va quritish ko'rsatkichlarini nazorat qilish.

14-mavzu. Poyabzal tagligini issiq vulkanizatsiyalash usuli.

Poyabzal tagligini issiq vulkanizatsiyalash zamonaviy usullari. Vulkanizatsiyalash asoslari va uskunalarini ishlash prinsipi. Vulkanizatsiyalanadigan materiallarni tanlash asoslari. Jarayonni nazorat qilish.

15-mavzu. Sifat nazorati umumiy tushunchalar, standartlash organlari, namuna olish.*

Standartlashtirish va uning vazifalari. Davlat standartlashtirish tizimi. Ishlab chiqarishda yagona texnologik tayyorlov tizimi. Poyabzalning sifat ko'rsatkichlari. Mahsulot sifatini attestatsiyadan o'tkazish. Mahsulot sifatini rejalashtirish. Mahsulot sifatini nazorat qilishning umumiy tizimi. Nuqsonsiz ishlab chiqarish tizimi. Mahsulot sifatini nazorat qilish turlari va usullari. Mahsulot sifatini nazorat qilish xizmati. Sifatli ish joyi tashkil qilishning texnik-me'yoriy hujjatlari.

16-mavzu. Charm buyumlari uchun mahsulotlarni nazorat qilish.

Charm buyumlari ishlab chiqarish korxonalarida mahsulotlarni texnologik jarayonlari me'yorlari. Charm buyumlari uchun qo'yiladigan talablar. Charm buyumlari sifat ko'rsatkichlari.

17-mavzu. Poyabzal ustki va tag detallarini bichish jarayonini nazorat qilish.

Poyabzal ustki va tag detallari uchun materiallar sifatini nazorat qilish. Bichin uchun texnologik me'yorlar. Bichish texnologik jarayonlarini nazorat qilish. Bichilgan detallarni sifatini aniqlash va nuqsonlarni bartaraf etish.

18-mavzu. Poyabzal tanavari uchun mahsulotlarni nazorat qilish.

Poyabzal tanavari detallari sifatini nazorat qilish. Tanavarni yig'ish uchun texnologik me'yorlar. Tanavarni yig'ish texnologik jarayonlarini nazorat qilish. Tanavarni yig'ishdagi texnologik jarayon sifatini aniqlash va mavjud nuqsonlarni bartaraf etish.

19-mavzu. Poyabzal yig'ish va pardoqlash jarayonini nazorat qilish.

Poyabzalni yig'ish va pardoqlash jarayonlari sifatini nazorat qilish. Poyabzalni yig'ish va pardoqlash uchun texnologik me'yorlar. Poyabzalni pardoqlash texnologik jarayonlarini nazorat qilish. Poyabzalni yig'ish va pardoqlashdagi texnologik jarayon sifatini aniqlash va mavjud nuqsonlarni bartaraf etish.

III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Poyabzal materiallarini bichish texnologik jarayonlarini tuzish, asoslash va texnologik karta tuzish.**
2. Poyabzal materiallarini kesish texnologik jarayonlarini tuzish, asoslash, texnologik va instruksion karta tuzish.**
3. Poyabzal ustki detallariga ishlov berish texnologik jarayonlarini tuzish, asoslash, texnologik va instruksion karta tuzish.
4. Poyabzal taglik detallariga ishlov berish texnologik jarayonlarini tuzish, asoslash, texnologik va instruksion karta tuzish.
5. Poyabzal tanovorlarni yig'ish jarayonlarining texnologik kartalarini tuzish, liyihalash va texnologik karta tuzish.**
6. Poyabzallarni yig'ish sxemasini tuzish va texnologik jarayonlarini loyihalash.**
7. Poyabzalni yig'ish operatsiyalarining texnologik kartalarini tuzish.
8. Turli usulda shakl berishda poyabzal yig'ish sxemalarini tuzish.**
9. Namlik va issiqlik bilan ishlov berishda texnologik jarayonlari. Poyabzal tagligini issiq vulkanizatsiyalash usuli bilan yig'ish jarayonini loyihalash.**
10. Yakuniy pardoqlash bo'limi ish oqimi va ishlatilgan uskunalari va mashinalarni hisoblash.*

Laboratoriya mashg'ulotlari multimediyaga qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

*Izox: *Turkiya davlatining EGE universiteti 915- o'rinida.*

***Kosonsoy Al-Aziz va Botir-Muxammadali korxonalarini tavsiyasi asosida olingan.*

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Poyabzal materiallarini bichish texnologik jarayonlarini tuzish.
2. Poyabzal materiallarini bichish texnologik jarayonlarini asoslash.
3. Poyabzal materiallarini bichish texnologik jarayonlariga texnologik karta tuzish.**
4. Poyabzal materiallarini bichish texnologik jarayonlariga instruksion karta tuzish.
5. Poyabzal materiallarini kesish texnologik jarayonlarini tuzish va asoslash.

	6. Poyabzal materiallarini kesish texnologik jarayonlariga texnologik va instruksion karta tuzish. 7. Poyabzal ustki detallariga ishlov berish texnologik jarayonlarini tuzish va asoslash. 8. Poyabzal ustki detallariga ishlov berish texnologik jarayonlariga texnologik karta tuzish. 9. Poyabzal ustki detallariga ishlov berish texnologik jarayonlariga instruksion karta tuzish.** 10. Poyabzal taglik detallariga ishlov berish texnologik jarayonlarini tuzish va asoslash. 11. Poyabzal taglik detallariga ishlov berish texnologik jarayonlariga texnologik va instruksion karta tuzish. 12. Poyabzal tanovarlarni yig'ish sxemasini tuzish va texnologik jarayonlarini loyihalash.** 13. Poyabzal tanovorlarni yig'ish jarayonlarining texnologik kartalarini tuzish. 14. Poyabzallarni yig'ish sxemasini tuzish va texnologik jarayonlarini loyihalash.** 15. Poyabzalni yig'ish operatsiyalarining texnologik kartalarini tuzish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan amaliy tajribalar o'tkazish, sinov natijalarini tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: -poyabzal ustki va tag materiallarni bichish jarayonini rivojlantirish yo'llari; -ustki detallarini tikma chok bilan biriktirish usullari; -poyabzalga ishlov berish texnologik jarayoni sxemasini tuzish; -turli usulda shakl berishda poyabzal yig'ish sxemasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) -poyabzal ustki delallari uchun materiallarni bichishni; -poyabzal tag detallar uchun materiallarni bichishni; -poyabzal yig'ish jarayonini loyihalash uslubini, yig'ish sxemasini; -poyabzalga ishlov berish texnologik jarayonini sxemasini tuzishni; -turli usulda shakl berishda poyabzal yig'ish sxemasini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) poyabzal ustki va tag delallari uchun materiallarni bichish; -poyabzal taglik detallariga dastlabki ishlov berish; -poyabzal ustki tanovarini yig'ish sxemasini tuzish; -jarayonlar tartibini tuzish; -poyabzalga ishlov berish texnologik jarayonini sxemasini tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)

4	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari; • interfaol keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo‘lib ishlash; • vedio materiyallar tayyorlash; • individual ishlash; • virtual reallik; • gamifikatsiya; • mobil platforma; • courselab; • java script; • autoplay.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6	Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy adabiyotlar 1. U.M.Maqsudova Poyabzal materiallarini me’yorlashtirish. Darslik. -T. Fan, 2004 y, -144 bet. 2. С.С. Мақсудов Чарм буюмлар технологияси. 1-жилд, Дарслик. –Т.: Фан ва технология, 2004, -164 bet. Qo‘shimcha adabiyotlar 1. А.А. Хайдаров, А.К. Камалов. Чарм буюмларини конструкциялаш. I кism, Дарслик. -Т.:ТТЕСИ, 1999, -160 bet. 2. А.А. Хайдаров, А.К. Камалов. Чарм буюмларини конструкциялаш. II кism, Дарслик. -Т.:ТТЕСИ, 1999, -164 bet. 3. К.А. Загайгора., З.Г.Максина Проектирование технологического процесса сборки обуви. Учебное пособие.- В.: УО «ВГТУ», 2011. 4. EGE universiteti dasturi. Leather apparel production applications https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001.* 5. Birsen Gul Gileroglu; “Hazır Giyim Isletmelerinde Bulimler ve Gurevleri-Siparis Formu Hazırlama 1-2”, Ya-Pa Yayın Pazarlama, Istanbul, 2006 y.* Axborot manbaalari 1. www.shoeinfonet.com. 2. www.obuv.ru. 3. https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001.*

7	Namangan to‘qimachilik sanoati instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	Fan / modul uchun mas’ullar: Dadaboyev F.M - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi. Parpiyev U.M - Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrası assistenti.
9	Taqrizchilar: Xojiyev A. – Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrası professori v.b, t.f.n. Yuldashev F. – Kosonsoy “Al-Aziz” MChJ muhandisi.** Baxodirov A. - Botir-Muxammadali MCHJ rahbari.**